



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI LATIFALARDA GENDER XUSUSIYATLAR

Temirova Feruza Oybek qizi,
Navoiy davlat pedagogika insituti tayanch doktoranti.
f-temirova@list.ru

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15179568>

Annotatsiya. Mazkur maqola ingliz va o'zbek tillaridagi bolalar latifalarining gender xususiyatlariga ko'ra qiyosiy tahliliga asoslanadi. Maqolada ikki tilning gender xususiyatiga oid nazariy ma'lumotlar, tadqiqot ishlari va olimlarning fikr-mulohazalari keltirilgan. Shuningdek, ikki tilda taqdim etilgan misollar orqali dalillangan.

Kalit so'zlar. Gender, til, leksik birlik, bolalar latifalari, etnik, ijtimoiy-madaniy.

Kirish. "Gender" tushunchasi ilm-fan va tadqiqotlar maydoniga o'tgan asrning 70-yillaridan kirib kela boshlagan. Gender bu ijtimoiy konstruksiya hisoblanib, fanda ayol va erkak xatti-harakatini, nutqiy muloqot jarayonini, ijtimoiy va madaniy tavsiflarini aniqroq farqlash uchun takomillashmoqda.

Rus olimasi Gvozdevaning tadqiqotlariga ko'ra, gender xususiyatlarni aniq farqlab tavsiflaydigan qarash mavjud emas. Fanda faqat gender muammolarni ilmiy tadqiq qilish va uning biologik, ijtimoiy-madaniy xususiyatlarini farqlash uchun o'rganilishlar olib boriladi. Chunki, gender xususiyatlar til va nutq farqlari orqali kelib chiqadigan ijtimoiy konstruksiya hisoblanadi [1, 12.].

Tilshunoslikda "gender" muammolarni o'rganish borasida olim To'xtasinov shunday fikrni ilgari surgan: "tilshunoslik nuqtai nazaridan "gender" madaniyat va til hodisasi sifatida qaraladi. Gender bilan bog'langan so'zlar o'zida xalq madaniyatini saqlaydi. Ingliz va o'zbek tillarida erkak va ayolning qiyofasi, fe'l atvori xususiyatlarining o'xshash va farqli jifatlarini tavsiflash tilshunoslikda belgilangan birlik hisoblanadi. "Gender" kategoriyasining ijtimoiy ahamiyati uni jins muammolariga taaluqli bo'lgan barcha til fenomenlariga nisbatan qo'llanishini asoslab beradi. Jins va uning ko'rinishlari til orqali nafaqat qayd etiladi, balki dunyoqarash nuqtai nazaridan ham baholanadi. Shuning uchun tilda jinsni qayd etish qanday vositalar orqali amalga oshirilishini aniqlash haqqoniydir"[2, 79.].

Gender xususiyatlar ham millatning ijtimoiy xususiyati va holatini ochib beradi, o'sha xalqning ayol va erkak mavqaei o'rtasidagi tafovutlarni aks ettiradi. Bolalar latifasi gender munosabatli ham o'z ichiga olishi bilan alohida xarakterlanadi. Bunda latifalar gender xususiyatlar orqali millatning sotsio-madaniy xususiyatlari, ijtimoiy normalar, o'g'il bolalar va qiz bolalar stereotiplari bilan bog'liq xossalarni ko'rsatib beradi. Masalan:



XORIJY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

Afandi maktabda bolalarga kun bermas edi. Bir kuni Ramazon oyida Afandi yana sho'xlik qildi. Domlasi:

- Nasriddin, jim o'tirasanni yo'qmi? Kaltak yeging kelyaptimi?" – dedi.

Afandi o'rnidan turib qo'l qovushtirib dedi:

- Kaltak yesa, ro'za ochilmaydimi?[3, 112.]

Latifada o'gil bolalarga xos bir nechta jumlar aks etgan, "**maktabda bolalarga bolalar kun bermaslik**", "**sho'xlik**", "**kaltak**" kabi so'zlar o'gil bolalarning xarakter xususiyatini ochib berishga xizmat qilgan. **Sho'xlik** va **kun bermaslik** kabi xususiyatlar faqatgina o'gil bolalarga xos va latifadagi muhim leksik birlik. Aynan shu so'zlar orqali latifaning qahramonining jinsiga xos xususiyatlar aks etgan. Yana bir misol,

Kichkina qizaloq bog'chaga yangi ko'ylakda keldi. Buni korgan bog'cha opasi undan so'radi:

- Asal, ko'ylaging juda chiroyli ekan. Namuncha, senga chiroyli ko'ylak olib berishmasa?! Aqlli qizaloq bo'lganing uchundir-da!

Qizaloq:

- Yig'laganim uchun!

Ushbu latifada esa qizlarga xos xususiyatlar, ularning shaxsiyatini ochib beruvchi so'zlar aks etgan. "**Ko'ylak**", "**chiroyli**" so'zlar faqatgina qizlar doirasida ishlatiladigan birliklar, "**yig'laganim uchun**" so'z birikmasi esa, qizaloqni ko'ylakni yig'lab oldirganligini ifodalaydi. Jumla barcha qizlarga xos yig'lab aytganini qildirish, jizzakilik kabi xususiyatlarni ko'rsatadi. O'zbek bolalar latifalari gender aspektida turli jihatlarni aks ettiradi. Ba'zi latifalarda qiz va o'gil bolalarning xatti-harakatlari, qiziqishlari va ularning o'rtasidagi munosabatlar haqida hazil-mutoyiba qilinadi. Bu latifalar gender rollari va stereotiplar haqida hazil qilish orqali bolalarning jamiyatda qanday qarashlarga ega ekanligini ko'rsatadi. Biroq, ular asosan yengil va xushchaqchaq muhitda aytiladi va jiddiy gender masalalarini muhokama qilishdan ko'ra, ko'proq bolalarning kundalik hayotidagi hazil-mutoyibalarini, maktabdagi hangomalarni aks ettiradi.

Chaironing fikriga ko'ra, g'arb mamlakatlarida gender munosabatlar demokratik belgi hisoblanib, biz bajarayotgan barcha narsa jinsga bog'liq: bizning kiyinishimiz, o'zimizni tutishimiz, gapirishimiz umumiy "gender xususiyat"ni namoyon etadi. Biz aytayotgan yoki o'qiyotgan hazillarimiz, uni qanday qabul qilishimiz ham jinsga bog'liq bo'lgan jarayon[4, 75.]. Ingliz tilida muloqot qiluvchi xalqlarning latifalar turkumlaridagi gender munosabatlariga nazar tashlasak, latifalar g'arb madaniyatida chuqur ildiz otgan gender stereotiplarni aks ettiradi. Masalan, o'gil bolalarning



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

sho'xligi, quvligi, doimo dakki eshitib yurishi kabi holatlar ingliz bolalar latifalarining aksariyatini tashkil qiladi. Masalan;

Teacher: "If you had five apples on your desk and the boy next to you what would you have?"

Jimmy: A fight!

Yana bir misol,

Mother: Freddie, why your face so red?

*Freddie: I was **running up** the street to **stop a fight**.*

*Mother: That's a very nice thing to do. Who was **fighting**?*

Freddie: Me and Jackie Smith[5, 56]!

Latifalarda o'g'il bolalarning hsaxsiy xususiyatlarini, xarakterini ochib beradigan

"fight", "running up" kabi jumlar mavjud. Ulardagi o'g'il bolalarning *janjalga, ishkalga moyillik, to'polonchilik* kabi xususiyatlar o'g'il bolalarning genderologik xususiyatlaridan biri ekanligini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbek tilidagi latifalarda gender munosabatlarda milliy-etnik qarashlar ta'siri ko'proq ekanligini; o'zbek bolalar latifasidagi gender xususiyatlar o'g'il bolalarga nisbatan to'polonchilik, sho'xlik, sportga bo'lgan qiziqishlari, intellektual salohiyati past o'quvchilarning tanqidga uchrashi ifodalangan leksik birliklar ko'zga tashlanadi. Ingliz latifalarida ham shunday aynan o'gil bolalar shaxsiyati dangasalik, anqovlik kabi salbiy xususiyatlar ifodalangan gender aspektli lisoniy vositalar yetakchi ekanligi; hamda o'g'il bolalarni davlat rahbarlari, yetuk shaxslarga qiyoslash, ularning hayotidan iqtibos keltirilgan holatlar aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Гвоздева А. А. Языковая картина мира: лингвокультурологические и гендерные особенности (на материале художественных произведений русскоязычных и англоязычных авторов). Автореф.дисс. канд.филол.наук. – Краснодар, 2004.
2. Тухтасинов И. М. Лингвокультурологические и гендерные особенности сложных слов в художественном тексте (на материале английского и узбекского языков). Автореф.дисс. канд.филол.наук. – Ташкент, 2011. С.97.
3. Sarimsoqov B, Yo'ldosheva. F. Afandi latifalari. – Toshkent: Adabiyot va San'at. 1990.
4. Chair D., The language of jokes in the digital age. USA. New York. Routledge, 2018. P: 70.
5. Riddles and jokes. London: Savill and Edwakds, Printebs, Chandos-Steet. 1863.